



Doç. Dr. Esra Nur Tiriyaki
anısına

ifWT

Institut für die Welt der Türken

VII. ULUSLARARASI TÜRKLERİN DÜNYASI SOSYAL BİLİMLER SEMPOZYUMU

INTERNATIONAL WORLD OF TURKS SYMPOSIUM OF SOCIAL SCIENCE

2-4 Haziran
June 2023 | Prag-ÇEKYA
Prague-CZECHIA



BİLDİRİ KİTABI

EDİTÖR: DR. RAMAZAN ERYILMAZ

**VII. ULUSLARARASI TRKLERİN
DNYASI SOSYAL BİLİMLER
SEMPOZYUMU**

**VII. INTERNATIONAL WORLD OF
TURKS SYMPOSIUM OF SOCIAL
SCIENCES**

BİLDİRİ KİTABI

PROCEEDINGS BOOK

02-04 Haziran/June 2023 Prag-ÇEKYA

Editör

Dr. Ramazan ERYILMAZ

<i>Umida RASULOVA</i>	
TOFAЙ МУРОД УСЛУБИ	756
<i>Ülker XELİLLİ</i>	
AzƏRBAYCAN DİLİNİN FRAZEOLÖJİ VAHİDLƏRİNDƏ “İNSANIN EMOSİONAL VƏZİYYƏTİ: KƏDƏR / QƏM / QÜSSƏ”	763
<i>Ünal KALAYCI</i>	
TÜRKÇEYE GERİ ÖDÜNÇLEMELER ÜZERİNE.....	763
<i>Webi Achmad RİVALDİ; Nero Mika HASAKİ; Idul Fitri Kuengsi SİRAlT; Yohanes Ferdinand PELEALU; PATRÍCÍA</i>	
LEGAL CONSEQUENCES OF FAILURE TO IMPLEMENT PEACE PROPOSAL IN SUSPENSION OF DEBT PAYMENT OBLIGATIONS	778
<i>Yimmy OCTAVÍAN; Robbin MATHESTA; Lawrence AVERİNO; Magistrate TORANG; Dian Aprilia RYETANTY; Natalis Nibenama ZEGA</i>	
JURIDICAL REVIEW OF LAW NUMBER 8 OF 1999 CONCERNING CONSUMER PROTECTION AGAINST CONSUMERS OF GOODS DELIVERY SERVICES	781
<i>Zarifa O'RİNOVA</i>	
PRETSEDENT NOMLARNING ONOMASTİK METAFORA SIFATIDAGI VAZIFASI	789
<i>Zarnigor DAVRONOVA</i>	
XX. ASR BOSHLARIDA QO'LLANILGAN ANTROPONIMLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	797
<i>Zarrina MUZAFFAROVA</i>	
ADABIY JANRLARDA TIL BIRLIKLARINING İFODALANISHI (ERKIN VOHİDOV SHE'RİYATI MISOLIDA).....	804
<i>Zehrahanım RAHİMOVA</i>	
QIPÇAQ TÜRK DİLLƏRİNDƏ İSMİN HAL KATEQORİYASI	813
<i>Zeynep EKİNCİ</i>	
TÜRKÇEYİ YABANCI DİL OLARAK ÖĞRENEN RUS ÖĞRENCİLERİN TÜRKÇEYE YÖNELİK GÖRÜŞLERİ: ALANYA ALAADDİN KEYKUBAT ÜNİVERSİTESİ ÖRNEĞİ.....	819
<i>Zilola TO'QSANOVA</i>	
TARIXIY ASARLARDAGI ASTRONOMİYAGA OİD MA'LUMOTLAR (AHMAD DONISH MEROSI MISOLIDA).....	819
<i>Акбар САБИРДИНОВ</i>	
ШУХРАТ ШЕЪРИЯТИДА ЛИРИК ҚАХРАМОН.....	826
<i>Гулноза ОРИПОВА</i>	
ЛИРИК АСАР КОМПОЗИЦИЯСИ	827
<i>Бауыржан САЙФУЛЛАЕВ; Айдана МЕДЕНОВА</i>	
ЗАХИРИДДИН МҲАММЕД БАБЫР: ҚОЛБАСШЫ, САЯСАТКЕР, АҚЫН	840
<i>Бауыржан САЙФУЛЛАЕВ</i>	
КӨРКЕМ ШЫҒАРМА ТІЛІНДЕГІ ДИАЛЕКТИЗМДЕР (М.ОМАРОВ ПЕН Қ.СЕЙДАНОВ ШЫҒАРМАЛАРЫ МЫСАЛЫНДА).....	844

TARIXIY ASARLARDAGI ASTRONOMIYAGA OID MA'LUMOTLAR (AHMAD DONISH MEROSI MISOLIDA)

Zilola TO'QSANOVA

Öğr. Gör., Buhara Devlet Üniversitesi Fizik Bölümü
Özbekistan
tuqsanova@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Buxoroning buyuk ma'rifatparvar vakili, qomusiy olim, yetuk arbob, diniy va dunyoviy fanlar bilimdoni Ahmad Donish merosidagi astronomik jihatlar, munajjimlik faoliyati, asarlarida falakiyot ilmi bilan bo'g'liq ma'lumotlar aks etgani ilmiy tahlil qilingan.

Kirish

O'рта Osiyo xonliklarida turli dunyoviy fanlar, handasa (geometriya), arifmetika (hisob ilmi), jug'rofiya (tabiatshunoslik), mushkulot (mantiq), falakiyot (astronomiya) kabi ilmlari yaxshi rivojlangan. Biz buni faqat moddiy madaniyat, me'morchilik, harbiy sohalargina emas, balki ma'naviy hayotda, xususan, tarixnavislik sohasida ko'rishimiz mumkin.

Buxoro amirligida yuqori lavozimlarida ishlagan va turli fanlar bilimdoni hisoblangan ma'rifatparvar Ahmad Donish tarixiy asarlarida ko'plab astronomik ma'lumotlar uchraydi. Bu uning yetuk munajjimlardan biri bo'lganligini ko'rsatadi. Ahmad Donish ilmu nujum (yulduzshunoslik), geometriya, me'morlik, rassomlik, tabobat, she'riyat va musiqa sohalari bilan shug'ullangan. Mohir "ilmi hay'at" (falakiyotshunoslik) va "ilmi nujum" (munajjimlik) sohibi bo'lgan. Tabiiy fanlar yo'nalishida o'z tadqiqotlari bilan zamona ziyolilarini hayratda qoldirgani uchun ilmiy taxallusi Handasadon (Muhandis) va Sitorashunos (Munajjim) ham bo'lgan[1, 20]. Buxoroda donishmadligi sabab Ahmad Kalla, Kallalik Ahmad nomlari bilan tanilgan. Munajjimlikdan puxta bilimga egaligi tufayli amir Nasrullo nazariga tushgan.

Ahmad Donishning "Risola yoxud Mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi" asarida Buxoro tarixi bilan bog'liq voqealar astronomik hodisalar bilan bog'lanib bayon etilgani e'tiborga molik. Ushbu asar "Kichik tarix", "Safarnoma", "Buxoroi sharif amirlarining tarjimai holi" kabi nomlar bilan mashhur bo'lgan. Asarning muqaddimasida quyidagilar bayon etilgan: Alloh bu tuproqli zamin himoyasi uchun uning ustini ko'kchodir (osmon) bilan qopladi. Yerning barqarorligi va davomiyligini ta'minlash uchun, zarur ozuqani tashqaridan yetkazishlari uchun yulduzlar harakatini tartibga solib, ularni idora qiluvchi mas'ullarni belgiladi. Shuningdek, muarrif davom etib, bu dunyo hayot, suv va adolat bilan obod bo'lib, o'lim, suvsizlik va zulm bilan vayron bo'ladi. Ularning bari olti yulduzning ulviy (oliy, yuqori) olami orqali vujudga keladi, deydi. Osmon jismlarini tasvirlar ekan, ular qanday holat kelsa foydaliyu, aksincha zarari ekanini ko'rsatib o'tgan. Vujudiyot (borliq) Quyosh, Zuhra va Mushtariy ta'siri natijasida bo'lsa, adamiyot (yo'qlik) Mirrix, Zuhul va Oy ta'siri natijasidir. Atorud ularning barchasiga taalluqli bo'lgan holatda, o'sha ta'sir qaysi yulduzning xosiyati bo'lganda, uning ma'dani hisoblanadi. Atorud tik kelganda (Yerga) ziyon va nuqson etadi. Bu yulduzlar osmon burjlari darajalarida noqislik va barakat keltiruvchi holatda tursa, shunga ko'ra ularning ta'siri kamayadi yoki ko'payadi[2, 10]. Alloh, taolo yana bu muddatlarda yuqorida zikr etilgan yulduzlarning Yer sayyorasiga yaqinlashishi, burjlari va darajalarida aylanishi Yer yuzidagi taraqqiyot va vayronagarchiliklarni ko'paytirishi yoki kamaytirishini ham taqdir etdi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa dunyoda bir maromdagi bardavom rivojlanishning oldini olish bilan birga uning batamom yo'q, bo'lib ketishiga sabab bo'luvchi davomiy vayronkorlikka ham yo'l

qo‘ymaslikdir[2, 11]. Tarixdan ma‘lumki, nujum ilmi* xalq orasida uzoq yillar davomida shuhrat topib, insonlarning ko‘pchiligi u bilan mashg‘ul bo‘lgan. Shu sabab taqvimlarni yaxshi bilishgan. “Yigirma-yigirma”, “qirq-qirq”, “yuz-yuz” va “ikki yuz ikki yuz” – munajjimlar atamasi ma‘nosida yulduzlarning “Zuhal” davri, “Mushtariy davri” kabi aylanish davri hisoblanadi. Ushbu aylanishlar uzoqlashish (qochish-firrot) va yaqinlashish (bog‘lanish-karonot)lar ta‘siri natijasidir[2, 12]. Muarrix hukmdorlarning taxtga kelish sanasida falakdagi sodir bo‘lgan hodisalarni bayon etadi. Mazkur hodisaning xosiyatini ham sharhlab beradi. Amirlarning hokimiyatga kelish vaqti nafaqat hijriy taqvim, balki imli nujum taqvimi bilan ham keltirilishi diqqatga sazovordir. Amir Haydar (1800-1825)ning taxtga o‘tirish voqeasi quyidagicha bayon etiladi. “Uning podsholik taxtiga o‘tirishi 1215/1800 yil yakshanba, rajab oyining 14 da, quyosh chiqqandan uch soat keyin bo‘lib, yulduz va sayyoralarning joylashishi shunday ediki, munajjimlar bashoratiga ko‘ra uning davrida qo‘shin orasida notinchlik va amirlar bilan podshoning o‘rtasida esa kelishmovchilik sodir bo‘ladi”. Donish osmon jismlari harakati, sayyoralarning joylashuvi ko‘ra oldinni bashorat qila oladigan munajjim sifatida tanilgan. U aytgan bashoratlar o‘z isbotini topgan. Quyidagi bashorat shunday ta‘kidlanadi: “Men uch marta astrologiya qoidalariga muvofiq bu viloyatlar (Buxoroda -Z.T.)da nimalar sodir bo‘lishini imtihon qildim. Uch marta ham Merkuriy ta‘sirida Mars Saturnga qarama-qarshi joylashgan edi. Astrologiya qoidalariga muvofiq bunday joylashuv ayniqsa, amirlar va mulkdorlar hukmronligi uchun buyuk musibat alomatidir. Kelajakda tirik qolganlar, xususan, amirlar, mulkdorlar tomonidan zo‘rlilik bilan xazinaga yig‘ilgan boylik kofirlar va gunohkorlar mulkiga aylanishiga shohid bo‘ladilar. Hukmdorlar, oxir-oqibat, o‘z boshlarini dorda qoldiradilar, amirlar va yuqori mansabdorlar esa xor-zor bo‘ladilar[2, 139]. Haqiqatan ham 1920 yil sentabr oyida Buxoro amirligi qizil armiya tomonidan tugatiladi. Asrlar davomida amirlar tomonidan yig‘ilgan davlat xazinasi Buxoro xalqiga xizmat qilish o‘rniga mustamlakachilar tomonidan tashib ketiladi. Buxoroning so‘nggi amiri Sayyid Olimxon (1910-1920) poytaxtdan chiqib ketishga majbur bo‘ladi. O‘z davlati chegarasidan chiqib Afg‘onistonda panohtopadi va u yerda 20 yildan ortiq vaqt davomida istiqomat qiladi[1, 29]. 63 yoshida vatani Buxoro sharifni qumsab, ko‘zi ojiz bo‘lib, faqirlikda vafot etadi. So‘nggi mang‘it amiri Olimxon Kobuldagi Shahidoni islom (Shuhadoi islom) – Islom shahidlari qabristonida dafn etiladi. Shuningdek, Ahmad Donish asarda quyidagi bashoratlarni ham ilgari suradi: yulduzlarning joylashishiga qaraganda, Movarounnahrda hokimiyat bu toifa qo‘lida qolmaydi. Ajoyib o‘zgarishlar, buyuk to‘qnashuvlar sodir bo‘ladi. Marsning Saturnga qarama-qarshi turishi, Yupiterning Merkuriyga yaqinlashishi bu islom xalqlarining diniy e‘tiqodlarini sustlashuvidan darak beradi. Dunyoning hamma mamlakatlarida soxtakorlik va ishonchsizlik va yolg‘onni kuchaytiradi[2, 139]. Umuman olganda Ahmad Donishning falakiyot ilmi borasidagi izlanishlari asosida bergan ma‘lumotlari uning amirlikda mohir astronom bo‘lganidan dalolat beradi. Asarlarida zikr qilingan astronomik hodisalar va ularning falsafiy mushohadasi nafaqat tarixchilar, balki faylasuflar, fiziklar, astronomlar uchun ham qiymatli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Amir Sayyid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. – Toshkent: Fan, 1991. – 32 b.
2. Ahmad Donish. Risola yoxud Mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi / tarjima muallifi Qiyomiddin Yo‘ldoshev. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2014. – 144 b.
3. Naimov I. Ahmad Donishning ma‘rifatparvarlik faoliyati va uning ilmiy merosi: Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferenti. – Toshkent, 2022. – 149 b.

* Osmon jismlari va ularning harakatini o‘rganuvchi fan.